UO‘K 821.512.133`06.09-31

MANFAATLI NIKOH MOTIVINING GENEZISI XUSUSIDA

D.A. Azizova

Maqolada manfaatli nikoh motivining ijtimoiy va adabiy ildizlari, motiv variantlarining o‘ziga xos jihatlari, ijtimoiy munosabatlarda manfaatli nikoh reallashgani holda, adabiy matnlarda badiiy talqin etilmagani tadqiq etilgan. Manfaatli nikoh adabiy-badiiy asarlar va tarixiy asarlar misolida tadqiq etilib, bir voqeaning turfa talqinlari va ularning omillari xususida tahlil qilingan. Manfaatli nikoh motivlar kompleksining motiv halqalari motivning subyekti, obyekti, predikati nuqtayi nazaridan tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: *motiv, genezis, ertak, doston, tarixiy asar, talqin, variant, ko‘ragon.*

В статье исследуются социальные и литературные истоки мотива брака по расчёту, особенности его вариантов и художественного осмысления. На материале литературных и исторических произведений анализируются различные интерпретации одного события и факторы, обусловившие их формирование. Рассматривается соотношение социальных практик и их отражения в литературе. Мотивные звенья комплекса брака по расчёту характеризуются с точки зрения субъекта, объекта и предиката мотива.

Ключевые слова: *мотив, генезис, брак по расчёту, сказка, эпос, историческое произведение, интерпретация, вариант, кураган.*

KIRISH

A.Veselovskiy “motivlar turli qabilalar muhitida mustaqil ravishda paydo bo‘lishi mumkin; ulardagi bir xillik yoki o‘xshashlik o‘zlashtirish bilan emas, balki turmush shart-sharoitlari va ular paydo qilgan ruhiy jarayonlarning o‘xshashligi bilan izohlanishi mumkin” [1. B. 301] deb hisoblaydi. Tarixchi Laurens Storega ko‘ra, o‘rta asrlardagi oilaviy hayot shaklining hozirgi zamon shakliga o‘tishi uch bosqichni o‘z ichiga oladi. Bular: nuklear, patriarxal va emotsional individualizmga asoslangan yangi oila modellaridir [2. B. 431]. L.Store qayd etgan G‘arb oila modellari tarixiy taraqqiyot davomida bizning jamiyatda aynan takrorlanmasa-da, muayyan o‘xshashliklar mavjudligi ham bor gap[1]. L.Storega ko‘ra, nuklear oilaning spetsifik xususiyatlari quyidagilar: ochiq qarindoshchilik munosabatlari oilaning hukmronlik shakli hisoblanadi; o‘zaro ehtirosli yaqinlik bo‘lmaydi; nikoh avlod qoldirish uchun zarurat deb qaraladi; nikoh tuzilayotganda qabila, oila, yoki davlat manfaatlari yetakchi sanaladi, nikohlanayotganlarning manfaati hisobga olinmaydi [2. B. 433]. “Alpomish” dostonida nuklear oila xususiyatlari yaqqol ko‘rinadi. Boysari va Boybo‘ri befarzand bo‘lgani uchun “sunnat to‘y”ga chaqirilmay, urug‘ning boshqa a’zolari tomonidan mulzam qilinadi. Shu voqeaning o‘zida nuklear oilaga xos ikki jihatni ko‘rish mumkin. Birinchi navbatda, nikoh avlod qoldirish uchun zarurat deb qaraladi, qolaversa, bu masalaga urug‘, qabilaning bevosita aralashuvi, ta’sir o‘tkaza olishi kuzatiladi. Ya’ni ochiq qarindoshchilik bunday oilaning hukmronlik shakli sanaladi. Bundan tashqari, nuklear oilada “nikohdan oldin qayliq tanlash erkinligi, oilaviy hayotning boshqa tomonlari jamoaning, qarindoshlar va ota-onaning manfaatlariga bo‘ysundirilgan” [2. B. 231]. Alpomish va Barchinning yoshligidan unashtirilishi, bu nikohga ikki qabilaning birlashib, munosabatlarni yanada yaxshilash vositasi deb qaralganida ham ayni shu narsani ko‘ramiz.

Tarixiy davrlarda inson turfa bosqichlarni bosib o‘tdi. Bu, o‘z navbatida, uni o‘rab turgan olam va odam haqidagi qarashlarini, umuman olganda, dunyoqarashini tubdan o‘zgartirdi. O‘z-o‘zidan inson tushunchasidagi manfaat, uning mazmuni ham o‘zgarib bordi. Tarixiylik prinsipiga tayansak, Alpomish va Barchin nikohi qabila-elat manfaatlariga xizmat qilishi nuqatayi nazaridan idealga muvofiq, yana Alpomish va Barchin mazkur nikohning amalga oshishida majburiylikni his qilmaydi(lar). Shuning uchun ishda

[1] O‘zbek xalqiga xos oila tiplari haqida qarang: Shoumarov G‘.B., Haydarov I., Sog‘inov N.A., Akramova F., Solihova G., Niyozmetova G. Oila psixologiyasi. – Тошкент: Sharq, 2008. – 296 b.

mazkur nikohni manfaatli nikoh sifatida belgilay olmaymiz. Aksincha, Toychaxonning qizi Tovka oyim Alpomishga bergan nikoh taklifi umummanfaat (Alpomish mansub qabila-elat manfaatlari)ga zid bo‘lgani bois manfaatli nikoh sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq.

MATERIAL VA USULLAR

Nazariy fikrlarni dalillashda, asosan, A.Veselovskiy [1] fikrlariga tayanildi, shuningdek, manfaatli nikoh motiv variantlaridagi o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishda “Alpomish” dostoni [3], “Yoriltosh” ertagi [4], shuningdek, Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” dostoni [5], Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” [6], Muhammad Solihning “Shayboniynoma” [7], Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” [8], P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” [8] kabi badiiy asarlarga, o‘rni bilan Arrianning “Aleksandrning harbiy yurishlari” [10] hamda Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” [11] asariga murojaat qilindi.

Muammoni tadqiq etishda qiyosiy-tarixiy, struktural, sotsiologik tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

“Alpomish” dostonida manfaatli nikoh motivi qahramonga sinovlar yo‘lida – zindonda taklif shaklida berilgan. Surhayl kampir hiylasi bilan zindonda yotgan Alpomishga mamlakat podshohi Toychaxonning qizi Tovka oyim manfaatli nikoh taklifini beradi. Badiiy asarni GAP modeli asosida struktur jihatdan tahlil qilish R.Bartda, keyinroq D.Quronov tadqiqotlarida uchraydi. Biz ham mazkur tadqiqot yo‘nalishini davom ettirib, motiv variantlarini GAP modeli asosida tuzish va tahlilni amalga oshirishni afzal ko‘rdik. Bu bizga motivning komponentlari: subyekt, obyekt va predikatni ajratish, motiv variantlari semantikasini atroflicha yoritish imkonini beradi[2].

*Qalmoq yurtining malikasi Tovka oyim Alpomishga manfaatli nikoh taklifini ber**di**.*

Folklorshunos olim Jabbor Eshonqul fikricha, “Alpomish o‘z yori qo‘ygan shartlarni bajarish bilan birinchi sinovdan o‘tib, birinchi maqomga erishgan bo‘lsa, sarxushlik tufayli tutqunda bo‘lib, undan ozod bo‘lishi ikkinchi maqomga o‘tish holatini aks ettiradi. Birinchi sinov alp shomonning balog‘at yoshiga yetganini bildirsa, ikkinchi maqomdan o‘tish bilan esa u yurtga bosh bo‘lish, saltanatga egalik qilish qudratini ifoda etadi” [12. B. 187].

Alpomish Tovka oyim taklifini qabul qilsa, nafaqat zindondan qutular edi, balki Toychaxon yurtiga podshoh ham bo‘lar edi. Tovka oyim o‘ziga munosib qayliq tanlash asnosida yurtini tanazzuldan qutqarishni ko‘zlaydi[3]. Taklifdan qahramon vasvasaga tushmadi, shu bois manfaatli nikoh syujetda amalga oshmadi. Boshqacha aytganda, alp manfaatli nikoh taklifini rad etish bilan tutqunlikda ham *sinov* ichida *sinov*dan o‘tib toblandi va oxir-oqibat yana bir maqomga ko‘tarildi.

*Alpomish malika Tovka oyim bergan manfaatli nikoh taklifini rad et**di.***

Manfaatli nikoh motivi “Alpomish” dostonida safar davomidagi sinovlardan biri bo‘lsa, “Yoriltosh” ertagida qahramonni *safar* (*sinovlar yo‘li*)ga da’vat etishi bilan ahamiyatli. Bilamizki, ertakda o‘gay ona o‘z o‘g‘liga o‘gay qizini olib berishga urinadi. Personaj manfaatli taklifni rad etadi va safarga – sinovlar yo‘liga chiqadi.

Manfaatli nikoh motivi “Alpomish” dostonida safar davomidagi sinovlardan biri bo‘lsa, “Yoriltosh” ertagida qahramonni *safar* (*sinovlar yo‘li*)ga da’vat etishi bilan ahamiyatli. Bilamizki, ertakda o‘gay ona o‘z o‘g‘liga o‘gay qizini olib berishga urinadi. Personaj manfaatli taklifni rad etadi va safarga – sinovlar yo‘liga chiqadi.

[2] Bu haqda qarang: Барт Р. Введение в структурный анализ повествовательных текстов / Зарубежная эстетика и теория литературы XIX–XX вв. – Москва: Изд-во МГУ, 1987. В книге – С 397. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. Kitobda: Cho‘lpon hikoyalarining strukturasiga doir. – B. 69–102.

[3] Qalmoq yurtining tanazzuli, shuningdek, “Alpomish”dostonidagi qahramonlarning qabila-urug‘ taraqqiyotiga xizmat qilishi xususida mufassalroq ma’lumot olish uchun qarang: Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: O‘zbekiston, 2011. – 96 б.

1-jadval

“Alpomish” dostonida Hakimbek (alp) va Tovka oyim bilan bog‘liq manfaatli nikoh motivlar kompleksi sxemasi

Asar	Motiv komponentlari				Variant	Invariant
	Predikat	Subyekt	Manfaat	Obyekt		
“Alpomish”	Manfaatli nikoh taklifini berish	Tovka oyim	urug‘-qabila taraqqiyotini ta’minlash	Alpomish	Malika manfaatli nikoh taklifini berdi	MNTB, MNTQ, MNTRE
	Manfaatli nikoh taklifini qabul qilish	Alpomish	yetti yillik zindondan qutulish	Tovka oyim	Alpomish zindonidan qutilish evaziga Tovkaga uylanishga rozi bo‘ldi	
	Manfaatli nikoh taklifini rad etish[4]				Alpomish manfaatli nikoh taklifini rad etdi	

“Yoriltosh” ertagida manfaatli nikoh motivi syujet boshlanmasidayoq keladi va keyingi voqealarga turtki vazifasini bajaradi. Gulnorning o‘z uyidan ketishi natijasida syujet rivojlanib boradi. Ertakdagi manfaatli nikoh motivlar kompleksi nisbatan sodda ko‘rinishda sxemalangan:

A (Manfaatli nikoh taklifini berdi) +$A_{1\ (\text{Manfaatli nikoh taklifini qabul qildi})}$+B (Manfaatli nikoh taklifini rad etdi). Buni qisqa tarzda quyidagicha ifodalash ham mumkin: ($A+A_1+B$).

“Yoriltosh” ertagida manfaatli nikoh motivi syujetni rivojlantiruvchi, biriktiruvchi (dinamik) motiv emas, balki asosiy voqealarga turtki beruvchi birikuvchi motiv maqomidadir. “Alpomish” dostonidagi motiv variantidan farqli, ertakda nikohlanuvchi qahramon manfaat subyekti sifatida harakatlanmaydi. Ya’ni yetakchi manfaat subyekti “Alpomish”da nikohlanuvchilardan biri – malika Tovka oyim edi, ertakda esa manfaat subyekti nikohlanuvchi kelin va kuyov emas, balki o‘zga (o‘gay ona)dir.

*O‘gay ona mushtipar, soliha qizni o‘g‘liga olib berishni rejalashtir**di.***

Bunda motiv komponentlari: *subyekt(lar)* – o‘gay ona, ota, aka, *predikat* – manfaatli nikoh taklifini berish, *obyekt* – Gulnora; Harakatni amalga oshirayotgan yetakchi subyekt bu o‘rinda o‘gay onadir. “O‘gay ona chechan qizning qo‘lidan chiqib ketishidan qo‘rqib, zimdan o‘g‘lini unashibdi. Qiz bundan bexabar ekan. O‘g‘il befarosat, dag‘al va xunuk ekan” [4]. Gulnor o‘gay aka bilan nikohlanish vositasida an’anani davom ettirishi, odatiy yashash sharoitini saqlab qolishi mumkin edi. Ammo u o‘gay ona bergan manfaatli nikoh taklifini rad etdi. “U oqil, omadli, to‘g‘riso‘z, iffatli, ayni paytda sodda va marhamatli, o‘rni bilan passiv, biroq taqdir uchun kurasha oladigan, xalq idealini o‘zida aks ettirgan go‘zallik timsoli” [13. B. 35].

T.Rahmonov “Yoriltosh” ertagi muqaddimasi S.Tompson ko‘rsatkichidagi “opa-uka” (450) tipidagi ertaklardan jiddiy farqlanishini ta’kidlab, quyidagi fikrlarni aytadi: “Opa va uka syujetining voqealari S.Tompson ko‘rsatkichida ertak qahramonlari bo‘lmish opa va ukaning uydan haydalishi bilan boshlanadi. Bu syujetning “Yoriltosh” tipidagi variantlarida muqaddima butunlay boshqachadir: o‘gay aka o‘gay singlisiga uylanmoqchi bo‘ladi (144 inv. nomeri bilan qayd etilgan arxiv variantida esa aka tug‘ishgan singlisiga uylanmoqchi bo‘ladi). Bundan xabar topgan qiz uydan qochib ketadi, keng dalada panoh izlab harsang toshga (ayrim variantlarda qamishga) yalinadi. Tosh (qamish)lar ochilib qizni berkitadi. Orqasidan izlab kelgan otasi, onasi, akasi, opalariga tosh ochilmaydi, faqat kichik singlisiga (yoki ukaga) ochiladi. Opa-uka boshlari oqqan tomonga ravona bo‘ladilar. Shu yerdan boshlab, ertakning syujeti “opa-uka” ertagining S.Tompson ko‘rsatkichidagi syujet tipiga mos ravishda rivojlanadi” [14. B. 62]. E’tiborli jihati, “Yoriltosh” ertagining opa-uka syujet strukturasiga mos kelmayotgan qismi bu – manfaatli nikoh motivlar kompleksi ekanidir.

[4] “Alpomish” dostonining ayrim variantlarida Tovka oyim Alpomishni tushida sevib qoladi, alp zindondan qutulgach Tovkaga uylanib, uni o‘zi bilan olib ketadi. Qarang: Alpomish. O‘zbek xalq dostoni. Aytuvchi: Umir baxshi Safarov, Mardonqul Avliyoqul o‘g‘li. – Toshkent: Fan, 2018. – 368 b. Ma’lumki, dostonning 40 dan ortiq varianti mavjud. Ulardagi motiv variantlarini tekshirish bizning vazifamizga kirmaydi, shu bois mazkur o‘rinda farqli jihatni eslatish bilan kifoyalanamiz.

2-jadval

“Yoriltosh” ertagida manfaatli nikoh motivlar kompleksi sxemasi

Asar	Motiv komponentlari				Variant	Invariant
	Predikat	Subyekt	Manfaat	Obyekt		
“Yoriltosh”	Manfaatli nikohni rejalashtirish	O‘gay ona	Chechan qizni kelin qilish	Gulnora	O‘gay ona Gulnorni befarosat, dag‘al, xunuk o‘g‘liga olib berishni reja qildi	MNR, MNTB, MNTQ, MNR2,MNTRE
	Manfaatli nikoh taklifini qabul qilish	*Ota*	*Osoyishta yashash*[5]		Ota o‘z tinchligini o‘ylab qizini befarosat, dag‘al, xunuk o‘gay o‘g‘liga turmushga berishga rozi bo‘ldi	
	Manfaatli nikohni rejalashtirish	o‘gay ona, ota, aka	Yuqoridagi barcha manfaatlar		Otasi va o‘gay onasi tomonidan Gulnorani xunuk, dag‘al, befarosat o‘gay akaga turmushga berilishi rejalashtirildi	
	Manfaatli nikoh taklifini rad etish	Gulnor		o‘gay ona, ota, aka	Gulnor manfaatli nikoh taklifini rad etib safarga chiqdi.	

Endogam nikohdan ekzogam nikoh shakliga o‘tish bosqichining badiiy asardagi ifodasi o‘gay ona, ota yoki aka tomonidan berilgan manfaatli nikoh taklifining qiz tomonidan rad etilishi va uning uydan chiqib ketishi halqasida muhrlanadi. Ayni shu bo‘g‘in nikoh munosabatlarining bir necha asrlar davomida shakllanib, yangilangani, oldinga siljiganini ifodalaydi. Ya’ni qarindoshlar manfaatiga xizmat qiluvchi nikoh taklifi tarixiy bosqichning bir bo‘g‘ini bo‘lsa, manfaatli nikoh taklifining rad etilishi va personajning uydan ketishi an’anadagi nikoh tuzumining nihoyasi, yangi nikoh modelining boshlanish nuqtasidir.

Mushtipar, soliha qiz o‘gay ona bergan manfaatli nikoh taklifini rad etdi.

Endi harakatni amalga oshiruvchi shaxs (subyekt) – Gulnor, harakat yo‘naltirilgan obyekt – o‘gay ona/ota/aka, harakat – manfaatli nikoh taklifini rad etish. Qahramon manfaatli nikoh taklifini rad etish bilan an’anaviy (qarindoshlar orasidagi) nikoh tuzumini inkor qiladi. Uning safarga chiqishi va boshqa yurt podshohiga turmushga chiqishi – qarindosh bo‘lmagan shaxs bilan nikohlanishi – jamiyat hayotida nikoh modelining yangilanib, o‘zgarayotganidan darak beradi.

Qizning toshga yolvorishi ajdodlarimizning ibtidoiy e’tiqodi ifodasi bo‘lsa, toshning faqat kichik uka (singli)siga ochilishida muayyan ramziylik mujassam. Qiz o‘ziga jabr-zulm qilgan, o‘z manfaatlarini ustun qo‘ygan oila a’zolari (aka, ona, ota)dan voz kechadi, uka (singli)sini olib qolish bilan esa qarindoshlik munosabatini saqlaydi.

Manfaatli nikoh motivi *sinov* motiv kompleksi ichidagi passiv, birikuvchi motiv bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi namunalarining hech birida u yetakchi, faol motiv sifatida uchramaydi. Aslida, insoniyat bosib o‘tgan yo‘lning har bir bosqichida manfaatli nikoh izlari invariant shaklida mavjud bo‘lgan. Shunga qaramay, yozma adabiyotda variant sifatida u doim ham reallashmagan. Nikoh vositasida muayyan bir manfaatlarga erishilgani haqidagi ma’lumotlarni badiiy asardagi motiv variantlarida emas, asosan, tarixiy manbalarda uchratamiz.

Aleksandr Makedonskiyning sug‘d yerlariga bosqinchilik yurishida sug‘d hukmdorining qizi Ravshanak (Roksana) asir olinadi va Aleksandr “asira – dushmanining qizi Roksanaga uylanishga qaror qiladi. Tarixchi Arrianning yozishicha, Iskandar Roksanaga oshiq bo‘lgan. Boshqa bir tarixiy manbada yozilishicha, “bu ishning romantika yoki diplomatiya nuqtayi nazaridan qilinganidan qat’i nazar, qal’aning olinishi va Iskandarning Roksanaga uylanishi shunga olib keldiki, Iskandarning hali hayot bo‘lgan dushmanlari orasida eng kuchlisi hisoblangan va, aftidan, Sug‘dda katta obro‘ga ega bo‘lgan Roksananing otasi Oksiart, “dadillanib”, Iskandarning qoshiga keladi va uning dargohida izzat-ikrom ko‘radi” [10. B. 77]. Bu nikoh Iskandarning azaliy dushmani Oksiart bilan o‘zaro ittifoqini ta’minlab, uzoq muddat

[5] Mazkur halqa syujetda tasvirlanmagan, personajlar nutqidan anglashiladi, xolos. Motiv varianti semantikasini yoritishda bu halqa ham muhim bo‘lgani bois jadvalga shartli ravishda kiritishni o‘rinli deb hisobladik.

yunon qo‘shinlariga jiddiy qarshilik ko‘rsatayotgan sug‘dlar bilan munosabatni mustahkamlaydi. Bu esa mazkur nikohdan mustamlakachi va mustamlaka davlat manfaatlari ham ko‘zlanganini dalillaydi. “To‘y bo‘lgan vaqtda Ravshanak 16 yoshlarda bo‘lgan. O‘sha kunning o‘zida Iskandar bilan uning 10 ming jangchisi mahalliy qizlarga uylanishdi. Ushbu to‘ydan so‘ng Iskandar tomonidan yunon-makedon qo‘shiniga jalb etilgan Sug‘diyona va Baqtriya jangchilari qo‘shin safida teng huquqli maqomini olishdi. Ravshanakning oila a’zolari, aka-ukalari va opa-singillariga yuqori daraja berildi” [15].

Alisher Navoiy “Xamsa”sining beshinchi dostoni “Saddi Iskandariy”da Iskandar va Raksana (Ravshanak) nikohi tamoman boshqacha talqin qilingan. Dostonda Raksana Oksiartning emas, Doroning qizi. Doro fitnachilar tomonidan jarohatlangach, o‘limi oldidan Iskandarga “qizim Ravshanakni o‘z nikohingga ol”, deb vasiyat qiladi. Aslida, Doroning qizi Statira bo‘lib, Iskandar unga ham uylangan.

“Yozib Ravshanak nomig‘a nomaye,
Azodan surib tiyra hangomaey.
Bitib sudmand anda har nav anda pand,
Ki ko‘p qilma oshibu nosudmand”[6].

Ravshanakka noma yozilib, azani to‘xtatishi, to‘yga rozilik berishi so‘raldi” [6. B. 338]. Tabiiyki, Iskandar obrazining ideallashtirilishi nikoh voqealarining batafsil, hayot haqiqatiga monand tasvirlanishiga imkon bermaydi. Ya’ni Alisher Navoiyning badiiy maqsadi – adolatparvar shoh obrazini yaratish. Shu sababli manfaatli nikoh motiv invarianti imkoniyat tarzida qolib, variant sifatida boshqa tomon – qadriyat va sevgini ardoqlagan hukmdor xatti-harakatlarini qamrab olgan syujet motivlari reallashgan. Boshqacha aytsak, dostonda bu nikoh ortidagi manfaatga umuman urg‘u berilmagan.

Yunonlar sevgining yetti turini farqlaganlar: agape, philia, eros, stroge, ludus, pragma, mania. Pragma Afrotidaning oltinchi farzandi va bu bola uchun “shaxsiy manfaat va hisob-kitob birinchi o‘rinda turadi. Barcha uyushtirilgan nikohlar Pragmaning ishi. Boshqa tomondan, bu bola uzoq, doimiy munosabatlardan sevgi tuyg‘usini tarbiyalaydi; Pragma tufayli sevgi doimo yaqin bo‘lganlar orasida bo‘ladi. Sevgining bu turiga Okean va Tefidi, Gedesa va Persefona, Apollon va Afina, Gefest va Agla, Odisseya va Penelopalarning sevgisi misol bo‘ladi” [16]. Aleksandr Makedonskiy va Raksana sevgisini ham pragma, nikohini esa hisob-kitobga asoslangan, uyushtirilgan nikoh deyish mumkin. Biz nazarda tutayotgan manfaatli nikoh motivi va uning semantikasi mazkur nikoh va u anglatgan mazmundan farqli bo‘lib, pragma sevgisi bilan qurilgan nikohda ikki tomon ham bir-biriga har tomonlama – boylik, martaba, mavqe, chiroyda mos, eng muhimi, pragmada sinfiy bir qatlam vakillari ma’budlar ma’budani, qahramon qahramon ayolni, shahzoda malikani, qabila rahnamosi qabila rahnamosining qizini ongli ravishda o‘ziga mos ko‘radi va u bilan munosabat o‘rnatadi. Pragma asosida yuzaga kelgan nikohlarga oraliqdagi nikoh sifatida qarash mumkin: *sof sevgi asosida yuzaga kelgan nikoh* (beixtiyor, ko‘pincha aqlga emas hissiyotga quloq tutish, o‘zaro yoki katta avlod va nikohlanayotganlar orasidagi ziddiyatlardan so‘ng) – *pragma asosida qurilgan nikoh* (aql bilan tanlangan, aytarli konfliktlarsiz) – *manfaatli (tamali) nikoh* (aqlga muvofiq, lekin bunda xudbinlik, tamaning aralashuvi kuzatiladi, muhimi sevgiga zidlanadi).

XIII asrga kelib, mo‘g‘ullar bosqini, ularning hukmronligi ta’sirida xalqimiz turmush tarzi, shart-sharoiti, dunyoqarashi tubdan o‘zgara boshladi. Buyuk xorazmshohlar saltanatini qulatgan, “Iskandari Soniy” va Jaloliddin Manguberdidek sultonlarni mag‘lub etgan Chingizxon va uning avlodlari ilohiylashtirildi. Holat shu darajaga yetdiki, hatto temuriylar davrida ham xonlik taxtiga faqat mo‘g‘ul xon avlodidan bo‘lgan shaxsgina ko‘tarilishi mumkin edi. Oqibatda siyosiy maqsadda mo‘g‘ul xonlari avlodidan qiz olish ommalashdi.

Amir Temur 1360-yilda hokimiyat tepasiga kelsada, o‘zini xon deb e’lon qilmagan. Zero, buning uchun u, yuqorida aytilganidek, Chingizxon xonadoniga aloqador bo‘lishi shart edi. 1370-yilda mo‘g‘ul xoni Qozon Sultonxonning qizi Saroymulkxonimga uylanib, “Ko‘ragon” unvoniga ega chiqqach [11. B. 67], hokimiyatni to‘la o‘z qo‘liga olgan. Umuman olganda, xonning chingiziylarga aloqador bo‘lishi ijtimoiy ongda stereotipga aylangan. Shuning uchun ham ochiq-oydin manfaat tomoni ko‘rinib tursa-da, mualliflar bunday nikohni hukmdor maqomini yuksaltirish, uni ulug‘lash vositasiga aylantirgan. Bu stereotipni dunyoning katta qismini egallagan, Yevropani titratgan Sohibqiron qudrati ham parchalay olmagan. Zero, shunday bo‘lganda uning davomchilari Mirzo Ulug‘bek, Mironshoh Mirzo, Abu Said Mirzolarning mo‘g‘ul xon qiziga uylanib, “Ko‘ragon” bo‘lishlariga ehtiyoj bo‘lmasdi. Poyon Ravshanov yozganidek, “Chingizxonning shajarasi haqidagi asli qozig‘i bo‘sh bo‘lgan afsonaga Amir Temurning urug‘-aymog‘ini ham keltirib bog‘lash aqlga sig‘maydi” [5. B. 10].

Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asarida nikoh, oila masalalari Amir Temur idealiga muvofiq

[6] Aniqlik yuzasidan Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonining ham she’riy, ham tabdil variantiga murojaat etildi.https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Xamsa.%20Saddi%20Iskandariy%20(nazm).pdf

talqin etilgan [5]. Muayyan manfaat doirasida, hisob-kitobga asoslanilgan nikohlar doston syujetida odatiy, ayrim holda ideal – sevgi-muhabbat asosida yuzaga kelgan nikoh mazmunini tashigan.

Dostonda Temurning otasi Tarag‘ay Tegina begimga og‘iz solganda, Qozag‘an (mo‘g‘ul xoni) ham qizning qo‘lini so‘rab pirga murojaat qiladi. Bu mohiyatan manfaatli nikoh taklifi bo‘lib, Qozag‘an Teginaga uylanish orqali Tarag‘ayni ruhan sindirish, hukmdorlik kimda ekanini isbotlashga urinadi. Bu masala dostonda Shayx-ul alamning aralashuvi bilan osongina yechim topadi. Ya’ni u Tegina begimni Tarag‘ayga unashib qo‘ygani, ahdidan qayta olmasligini aytadi va Qozag‘an oradan ko‘tariladi. Bundan “xushfahm o‘quvchi mo‘g‘ullar bilan turkiy aholi nizolari faqatgina siyosiy kurash doirasida cheklanib qolmay, balki O‘rta Osiyo xalqi uchun nihoyatda muqaddas bo‘lgan oilaviy masalalarga ham borib taqala boshlaganini sezadi. <…> XIV asrga kelib hukmdor mo‘g‘ullar bilan tobe aholi (shunda ham har ikki tomonning asilzodalari) o‘rtasidagi yaqinlashuv – quda-andachilik, islomga kirish (mohiyatan manfaatli, hisob-kitobli nikoh) rasmiyat uchungina bo‘lgan” [5. B. 10].

Shuningdek, “Temurnoma”dan bir necha nikoh motivi variantlari: Temurning Saroymulkxonimga uylanishi dostonda boshqa epik dostonlardagi kabi qizni tasodifan uchratish, uni turfa xavflardan qutqarishdan so‘ng yuz beradi. 1373–1374-yil voqealarida Xonzodaning Xorazmdan olib kelinishi va uning amirzoda Muhammad Jahongir ibn Amir Temur ko‘ragonga ahd qilinishi, 1377-yili Sohibqironning asilzodalardan bo‘lgan Tuman og‘aga uylanishi, yana 1397–1398-yil Temurning Xizr xojaning qizi – To‘qal xonimga uylanishi haqidagi tasvirlarda ham nikohning manfaat qutbini aktuallashtiruvchi, yoki unga ishora qiluvchi tasvirlar mavjud emas.

Bilamizki, Boburning otasi mo‘g‘ul xoni Yunusxonning qiziga uylangan. Bobur ona tomondan mo‘g‘ullarga bevosita aloqador. Shu sababli Boburda Amir Temur, Ulug‘bek kabi manfaatli nikoh (mo‘g‘ul xonininng qiziga uylanish)ga ehtiyoj yo‘q edi. Garchi Bobur hayotida ham bir nechta manfaatli nikoh amalga oshgan bo‘lsa-da, uning taqdirini o‘zgartirgan, ziddiyatli va xarakterli manfaatli nikoh opasi – Xonzodabegim va Shayboniyxon nikohidir.

Muhammad Solih “Shayboniynoma”sida Shayboniyxonning “qo‘shin bilan Samarqand darbozasi oldiga qayta-qayta kelishi” shaharni olish maqsadi bilan emas, balki Xonzodabegimni bir ko‘rish – muhabbatga bog‘lab talqin qilinadi. Nikoh natijasi esa quyidagicha beriladi:

Garchi ul ganj uchun chekti ranj.
Oqibat ko‘rdi o‘zin sohibi ganj.
Oni chun xong‘a yubordi Bobur,
Shahrdan chiqdi-yu bordi Bobur [7. B. 112].

“Boburnoma”da esa mazkur voqeaga aytarli tavsif berilmagan. “Zarurat bo‘ldi, naridan-beri sulh tuzib, vaqt yarim kechaga yaqinlashganida Shayxzoda darvozasidan chiqildi. <…> Mening egachim Xonzodabegim ushbu chiqishda Shayboqxonning qo‘liga tushdi” [8. B. 84]. Henri Beverij “Bobur barcha holatlarni tilga olmagan. Xonzodaning Samarqandda qoldirilgani Shayboniy bilan tuzilgan kelishuvning bir qismi bo‘lgan” [17] deb yozadi. Xonzodabegim bir vaqtning o‘zida vaziyat qurboni, shu bilan birga, manfaatdor ham. Zero, u *“o‘zini yov qo‘liga tutqazib, ukasini naqd o‘limdan olib qolishni istardi*” [3. B. 251]. Ya’ni Xonzodabegim 25 yoshida 50 dan oshgan, “nevaralik xon”ga turmushga chiqish bilan “hech bir yerdan ko‘mak va madad bo‘lmagan” bir sharoitda ukasining hayotini saqlab qoldi.

XULOSA

Manfaatli nikoh motivi o‘zlashgan motiv emas, balki milliy turmushimizda qadimdan mavjud, lekin ijtimoiy ongda invariant shaklda tursa-da, konkret asarda har doim ham variatsiyalanmagan. Nikoh vositasida muayyan bir manfaat(lar)ga erishilgani haqidagi “ma’lumotlar”ni badiiy asardagi motiv variantlarida emas, asosan, tarixiy manbalarda uchratish mumkin. Yoki ertak va dostonlarda berilgan nikoh bilan bog‘liq variantlarda manfaat semasi tushirilib uning boshqa qutblari aktuallashgan.

Adabiyotlar:

1. *Веселовский А.Н. Поэтика сюжетов. / В кн.: Веселовский А.Н. Избранное. Историческая поэтика. – Москва: Высшая школа, 2006. – 649 с.*

2. *Гидденс Э*. Социология. / Таржимон. Н.Маматов ва Ж.Бегматов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 848 б.

3. Alpomish. O‘zbek xalq dostoni. Aytuvchi Umir baxshi Safarov, Mardonqul Avliyoqul o‘g‘li. – Toshkent: Fan, 2018. – 368 б.

4. Yoriltosh. O‘zbek xalq ertagi. [Elektron manba]. URL: https://uzsmart.uz/library/view/28949.html (Murojaat etilgan sana: 14.01.2024)
5. *Салоҳиддин Тошкандий*. Темурнома. – Тошкент: Чўлпон, 1990. – 348 б.
6. *Навоий А*. Хамса. / Масъул муҳаррир В.Раҳмонов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. – 416 б.
7. *Муҳаммад Солиҳ*. Шайбонийнома. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 334 б.
8. *Бобур З.М*. Бобурнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. – 192 б.
9. *Qodirov P*. Yulduzli tunlar. − Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 668 b.
10. *Арриан.* Поход Александра. – Москва-Лелинград: Издателъство Академии наук СССР, 1962. – 394. с.
11. *Шарафуддун Али Yazdiy.* Зафарнома / Масъул муҳаррир Б.Эшпўлатов. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 134 б.
12. Эшонқул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талқини. – Тошкент: Фан, 2011. – 286 б.
13. *Имомов К.* Ўгай қиз типидаги туркум эртакларнинг айрим хусусиятларига доир. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1997. – №3. 33–38 б.
14. *Раҳмонов Т.* “Бегуноҳ жабрланганлар” тематик туркумининг сюжет таркиби // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1988. – № 6. – Б. 61–63.
15. Roxshanak. [Elektron manba]. URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Roxshanak. (Мурожаат этилган сана: 31.10.2024).
16. Дети Афродиты, подаренные философией. [Elektron manba]. URL: https://vk.com/@mifgreece-deti-afrodity-podarennye-filosofiei. (Murojaat etilgan sana: 14.01.2024).
17. *Balabanlilar L.* Imperial Identity in the Mughal Empire: Memory and Dynastic Politics in Early Modern South and Central Asia. – London. I.B. Tauris, 2012. – 216 p.
18. Ўзбекистон СССР тарихи. Том 1. – Тошкент: Ўзбекистон СССР Фанлар академияси нашриёти, 1956. – 377 б.

ON THE GENESIS OF THE CONVENIENCE MARRIAGE MOTIF

Dilobarkhan A. Azizova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2026. 5(97). 75-82.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_ info@edu.uz

Key words: motif, genesis, folk-tale, epic poem, historical works, interpretation, variant/version, kuragan.

“The Genesis of the Motif of Convenience Marriage”, focuses on the roots of the motif of convenience marriage in the folk epic “Alpomish”, the fairy tale “Yoriltash”, as well as the epic “Temurnoma” by Salahiddin Toshkandi, “Saddi Iskandariy” by Alisher Navoi, “Shaybaniynoma” by Muhammad Salih, and “Boburnoma” by Zahiriddin Muhammad Babur and others.

In the epic poem “Alpomish”, the motif of a marriage of convenience is presented to the hero in the form of an offer at the second stage of the path of trials. Alpomish, who is in prison through the trick of the old woman Surkhayl, is offered a marriage of convenience by Tovka, the daughter of the king of the country, Toychakhan. The structural analysis of literary works based on the GAP model is found in the works of R.Barthes and, subsequently, in the studies of D. Quronov. Continuing this line of research, we have chosen to construct and analyze motif variants on the basis of the GAP model. This approach enables us to identify the components of a motif-subject, object, and predicate-and to provide a comprehensive account of the semantics of motif variants.

The queen of the Kalmyk land, Tavka, made a marriage proposal to Alpomish, who was interested in marriage.

According to J. Eshonkul, “If Alpomish fulfilled the conditions he set, passed the first test and achieved

the first status, then his imprisonment due to drunkenness and his release from it reflected the transition to the second status. The first test indicated that the Alp shaman had reached adulthood, and passing the second status expressed his power to become the head of the country and own the kingdom". If Alpomish accepted the offer Tovka, he would not only be released from prison, but would also become the king of the land of Toychakhan. Lady Tovka, while choosing a suitable groom for herself, aims to save her country from decline. The hero was not tempted by the offer, so the marriage of convenience did not take place in the plot. In other words, by rejecting the marriage of convenience, the alp passed the test within the test in captivity and eventually rose to another status.

Alpomish rejected the advantageous marriage proposal of Princess Tavka.

In the fairy tale "Yoriltash", the motif of a marriage of convenience appears at the very beginning of the plot and serves as an impetus for subsequent events. The hero of this fairy tale fully corresponds to the victim type of hero in V.Propp's classification. As a result of his departure from his home, the plot develops. The complex of motifs of a marriage of convenience in the fairy tale is schematized in a relatively simple form.

In fact, traces of marriage of convenience are existed in an invariant form at every stage of the path taken by humanity. Nevertheless, it has not always been realized as a variant in written literature. The fact that information about the achievement of certain benefits through marriage is found mainly in historical sources, not in variants of the motif in a work of art, is proved by ideas and conclusions about the roots of the marriage of convenience motif.

References:

1. Veselovskij, A.N. (2006). Poetika syujetov [Poetics of plots]. In: Izobronnoe. Veseloskiy, A.N. *Istoricheskaya poetika* [Historical poetics]. Moscow: Vysshaya shkola.

2. Giddens, E. (2002). *Sotsiologiya* [Sotsiology]. Tashkent: Sharq.

3. (2018). *Alpomish. O'zbek xalq dostoni* [Alpomish: An Uzbek Folk Epic]. Tashkent: Fan.

4. "Yoriltosh" – o'zbek xalq ertagi ['Yariltash' – uzbek folk tale]. [Online]. URL: https://uzsmart.uz/library/view/28949.html. (Date of Access: 14.01.2024)

5. Salohiddin Tashkandiy. (1990). *Temurnoma* [Temurnama]. Tashkent: Chulpan.

6. Navoi, A. (2014). *Xamsa* [Khamsa]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

7. Muhammad Salih. (1989). S*haybonіynoma* [Shaybaninama]. Tashkent: Literary and Art Publishing House.

8. Zahiriddin Muhammad Babur (2012). *Boburnoma* [The Baburnama]. Tashkent: O'qituvchi.

9. Qodirov, P. (2015). *Yulduzli tunlar* [Starry nights]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

10. Arrian. (1962). *Poxod Aleksandrya* [The Military Campaigns of Alexander]. Moscow-Leningrad: Publishing House of the Academy of Sciences of the USSR.

11. Sharofuddin Ali Yazdiy (1997). *Zafarnoma* [Zafarnama]. Tashkent: Sharq.

12. Eshonqul, J. (2011). *O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini* [Dream and Their artistic Interpretation in Uzbek Folklore]. Tashkent: Fan.

13. Imomov, K. (1997). O'gay qiz tipidagi turkum ertaklarning ayrim xususiyatlariga doir [On Some Features of the – Fairy-Tale cycle Stepdaughter's Type]. *O'zbek tili va adabiyoti*. No 3. Pp. 33-38.

14. Rahmonov, T. (1988). 'Begunoh jabrlanganlar' tematik turkumining sujet tarkibi [The Plot structure of the Thematic Group 'Innocent Victims']. *O'zbek tili va adabiyoti*. No 6. Pp. 61-63.

15. *Roxshanak* [Online]. URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Roxshanak. (Date of Access: 31.10.2024)

16. Deti Afrotidi [The Children of Aphrodite] [Online]. URL: https://vk.com/@mifgreece-deti-afrodity-podarennye-filosofiei. (Date of Access: 14.01.2024)

17. Balabanlilar, Lisa. (2012). Imperial Identity in the Mughal Empire: Memory and Dynastic Politcs in Early Modern South and Sentral Asia. London: I.B.Tauris.

18. *Tolstov, S.P*. (ed.) (1956). *O'zbekiston SSSR tarixi* [The History Of the Uzbek SSSR].Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR.

Muallif haqida ma'lumot:

AZIZOVA Dilobar Abdujalil qizi – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o'qituvchisi. E-mail: dilobarazizova@gmail.com